XALQ DEPUTATLARI BEKTEMIR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr III-3-012-14-198-K/24 Bektemir tumani

2025-yil uchun Bektemir tumani mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24 - dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni va Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26- dekabrdagi “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-024-14-0-K/24 son qaroriga asosan hamda Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-2344- sonli xatini inobatga olib xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Bektemir tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari 73 466 200,0 ming.(yetmish uch milliard to‘rt yuz oltmish olti million ikki yuz ming) so‘m va xarajatlari 73 466 200,0 ming.(yetmish uch milliard to‘rt yuz oltmish olti million ikki yuz ming) so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Bektemir tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 263 000,0 ming.(ikki yuz oltmish uch million) so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Bektemir tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq hamda Bektemir tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Bektemir tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 712 458,0 ming. (yetti yuz o‘n ikki million to‘rt yuz ellik sakkiz ming) so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (J.Umarov) va tuman Soliq inspeksiyasi (A.Eshquvvatov) bilan birgalikda 2025-yil tuman mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy xisobotlarning to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorning tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy web-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Bektemir tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ABDURAXMANOV
NURILLA
LYUTPULLAYEVICH

Xalq deputatlari Bektemir tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-3-012-14-198-K/24 -son qaroriga
1-ilova

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**73 466 200,0**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	7 458 000,0
2	Aksiz solig‘i	9 736 200,0
-	*shundan, benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*9 736 200,0*
3	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 054 650,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 112 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 106 850,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 904 000,0
7	Aylanmadan olinadigan soliq	9 403 500,0
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	13 001 000,0
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	690 000,0

2025-yil uchun Bektemir tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

Xalq deputatlari Bektemir tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-3-012-14-198-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda Bektemir tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar nomi	Bektemir tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**73 466 200,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**19 387 381,0**
	shundan:	
-	*"Mening maktabim"*	*541 688,0*
2	**Tibbiyot birlashmasi**	**2 170 361,0**
	shundan:	
-	*Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoiat salomatligi markazi*	*2 170 361,0*
3	**Madaniyat bo‘limi**	**3 547 769,0**
4	**Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi**	**2 305 135,0**
5	**Sport bo‘limi**	**9 351 138,0**
6	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**1 907 259,0**
7	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**1 819 627,0**
8	**Xokimiyat**	**18 515 387,0**

	shundan:	
-	*Ijtimoiy ko‘nikma markazlari*	*141 487,0*
-	*Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi*	*51 332,0*
-	*Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi*	*8 581 621,0*
-	*“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari*	*2 056 852,0*
-	*Zaxira jamg‘armasi*	*712 458,0*
9	**Xokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi)**	**867 089,0**
	shundan:	
-	*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari*	*160 878,0*
-	*Axborot-kutubxona markazlari*	*706 211,0*
10	**Xokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**13 595 054**

Xalq deputatlari Bektemir tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-3-012-14-198-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Bektemir tumani byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

T/r	Tuman nomi	Pivo		Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Aylanmadan soliq
		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	
1	Bektemir tumani	100%	0%	0%	20%	0%	15%	0%	15%	100%	0%	10%	100%	30%